

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ
НИЗОМИЙ НОМИДАГИ ТОШКЕНТ ДАВЛАТ ПЕДАГОГИКА
УНИВЕРСИТЕТИ
ТАБИЙ ФАНЛАР ФАКУЛЬТЕТИ
“ЗООЛОГИЯ, АНАТОМИЯ ВА ФИЗИОЛОГИЯ” КАФЕДРАСИ
Билология ўқитиш методикаси йўналиши
3 – курс 303 – гуруҳ талабаси Кенжаев Икромнинг

КУРС ИШИ



**МАВЗУ: “ЖИГАР КАСАЛЛИКЛАРИ ВА УНИ ОЛДИНИ ОЛИШ
ЧОРАЛАРИ”**

Илмий раҳбар:
“Зоология, анатомия ва
физиология” кафедраси
_____ б.ф.н., доц.
Д.А.Маматкулов

“Ҳимояга тавсия этилсин”

“Зоология, анатомия ва
физиология” кафедраси мудири

_____ б.ф.н., доц. Д.А.Маматкулов

Тошкент – 2014

REJA

I. KIRISH.

Jigar kasalliklari haqida umumiy tushuncha.

II ASOSIY QISM.

1.Jigar serrozi

2.Jigar exnakoki

3.Jigar raki

XULOSA.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO YXATI.

“Ovqat ustiga ovqat eyish va ovqatlanish tartibini buzish jigarga eng zararli narsalardan sanaladi. Imkoniyat boricha jigarni juda sovutish kerak emas, bu istisqo kasalligiga olib keladi, juda isitish ham kerak emas. Bu uning so'lishiga sabab bo'ladi...”

Abu Ali ibn Sino.

Jigar odam organizmi faoliyatida juda muhim va murakkab vazifalarni bajaradi.

Jigar organizmning markaziy bioximiyaviy laboratoriyasi va eng katta bezi hisoblanib, og'irligi 1200-1800 gacha bo'ladi. Jigar bir sutkada 500-1200 ml o't (safro) ishlab chiqarib, ovqat hazm bo'lishida va oziq moddalarning ichakdan qonga so'rilishida muhim ahamiyat kasb etadi. Olimlarning ta'kidlashicha, jigar hujayralarida 500 ga yaqin kimyoviy jarayonlar kechib, u faqat modda almashinuvini emas, zaharlarni va dori moddalarini zararlantiradi, qand moddalarini glikogen birikmalarga aylantiradi va biologik quvvat manbai bo'lgan ATF kislotasini hosil qilib, hujayralarga taksimlaydi.

Jigarning asosiy vazifalaridan biri o't (safro) ishlab chiqarish va me`da-ichakda sodir bo'ladigan hazm jarayonini qisman ta'minlash, shuningdek, qon, vitaminlar, glikogen, yog` moddalarining ba`zi bioelementlarini saqlash, xususiy tana oqsillarini yaratish, qon yaratishda ishtirok etish va inson a`zolarini maxsus fagotsitar hujayralari yordamida himoya qilishdan iborat. Organizmda zararli moddalar ko'plab paydo

bo'lganda (masalan, hazm organlarining surunkali kasalligida, alkogolizm) jigar faoliyatlari o'zgaradi, bu esa og'ir kasalliklarga olib keladi. Jigar kasalliklaridan o'tkir va surunkali yallig'lanish jarayonlari, shuningdek, gepatit, jigar tsirrozi, jigar exinokokkozi ko'proq uchraydi. SHifokor olimlarning ta'kidlashicha, jigar kasalliklari jigar va o't yo'llari kasalliklari deb shartli ravishda ikkiga bo'lingan. Bu tizimlar o'zaro shunday bog'langanki, jigar kasalligida o't yo'li va o't pufagida biror darajada o'zgarish kuzatiladi. SHuningdek, o't pufagi yoki o't yo'li kasalligidan keyin albatta jigarda o'zgarish paydo qilinishi anikdangan.

Gepatit – jigarining yallig'lanishi bo'lib, infeksiyon (masalan, virusli gepatit) va noinfeksiyon (masalan, mishyak, zaharli qo'ziqorinlar va turmushda ishlatiladigan ba'zi zaharli ta'sirga ega moddalardan zaharlanganda) farqlanadi.

Gepatit o'tkir va surunkali bo'lib, o'tkir gepatitda jigar faoliyati buzilib, ko'pincha ko'z oqi va badan sarg'ayadi. O'tkir gepatit ba'zan 2 yoki 3 oy cho'zilib, surunkali gepatitga aylanib, jigar tsirroziga olib kelishi mumkin.

Gepatitning bir iecha shakllari

Ular turli tipdagi viruslar orqali yuzaga kelib, hozirgi vaqtda gepatitning A, V, S, D, E qo'zg'atuvchilari o'rganilgan. Odamlar ko'pincha A yoki V gepatita bilan kasallanishmoqda. YOsh bolalarda yuqumli sariq kasalligining keng tarqalishiga

onalarning homiladorlik vaqtida ushbu xastalikka chalinishi va kasallik paydo qiluvchi viruslarning ona qornidan homilaga, shuningdek, tug`ruq vaqtida yoki undan keyin yuqishi sabab bo`ladi. Ba`zi homilador ayollar ilgari sariq kasali bilan og`riganliklarini inkor etib, afsuski, ular tug`ilajak farzandlarining salomatligi uchun buning oqibati yomon bo`lishini bilmaydilar. YUqumli sariq xastaligi kichik yoshdagi bolalarda, keksa kishilarda, homilador ayollarda, spirtli ichimliklarni iste`mol qiluvchilarda va boshqa kasalga chalingan kishilarda ham bu dard qiyin va og`ir kechadi. Jigar tsirrozi – jigarining surunkali rivojlanib boradigan kasalligi bo`lib, natijada jigar o`ziga yuklatilgan vazifalarni bajara olmay qoladi. O`tkir virusli gepatit, alkogol, turli kimyoviy moddalardan surunkasiga zaharlanish, oziq moddada vitamin va oqsil etishmasligi, ba`zi dorilarni, spirtli ichimliklarni ko`p miqdorda iste`mol qilish jigar tsirroziga olib kelishi ta`kidlangan.

Bemor darmonsizlanib, ozib ketadi, ishtahasi yo`qoladi, ko`ngli aynib qusadi, ichi ketadi, badani qichishadi, ba`zan sarg`ayadi, kamqonlik avjiga chiqadi va hokazo.

Foydali maslahatlar

1. Virusli gepatit bilan og`rib qolgan bemorni uyda o`zboshimchalik bilan davolash juda xavfliligini unutmang!
2. Virusli gepatitning oldini olishda bolalarda uchraydigan raxit,

eksudativ diatez, kamqonlik kabi kasalliklarni vaqtida davolash katta ahamiyatga ega.

3. Bolani jigar xastaliklaridan saqlash uchun uning atrofidagi barcha narsalarni, ayniqsa, o'yinchoqlarini va bolaning shaxsiy buyumlarini doimo ozoda tutish lozim.

4. Ovqatlanishdan oldin, ko'chadan uyga kirganda, hojatxonadan chiqishda qo'llarini yaxshilab yuvish zarur.

5. Meva va sabzavotlarni iste'mol qilishdan oldin albatta tozalab yuvish, so'ngra qaynatilgan suv bilan chayib olish kerak.

6. Qaynatilmagan suv ichmaslik, duch kelgan joyda ovqatlanmaslik, tozaligi shubhali bo'lgan havzalarda cho'milmaslik lozim.

7. Jigar xastaliklaridan asoratsiz sog'ayib ketishda parhez, to'g'ri hayot kechirish tarzi va ozodalik, chiniqish, badantarbiya talablariga rioya qilish muhim rol o'ynashini unutmang.

8. Bemor uchun tinch sharoit yaratilishi, jismonan va ruhan orom olishi shart.

9. Sut mahsulotlari, qatiq, tvorog, tuya suti va qumronni, turli meva sharbatlari, gulob, gul murabbosi kabi vitaminlarga boy oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilish kerak.

10. Spirtli ichimliklar, chekish mumkin emas, gazli suvlar, achchiq choy, kofe, o'tkir shirin, yog'li taomlar tavsiya etilmaydi

O'tkir jigar etishmovchiligi

Tez rivojlanadi, og'ir kechadi.

Asosiy belgilari:

- Sariqlik
- Gipoglikemiya
- Jigar entsefalopatiyasi; jismoniy kuchsizlik, ta`sirchanlik, engil hushning buzilishi yoki koma holati namoyon bo`ladi.
- Qon ketishi – qon ivish tizimi omillari faolligining kamayishiga bog`liqdir
 - Astsit – gepato-splenomegaliya va astsit yaqqol namoyon bo`lmaydi
- Infektsiyalar



Sabablar

- Ijobiy salomatlik holati fonida: virusli gepatit bilan kasallanish, paratsetamol peredozirovkasi, dori vositalariga idiosinkrazik reaktsiya, o'simliklar, qo'ziqorinlar, kimyoviy moddalar bilan zaharlanish, issiqda qolish, homiladorlik.
- Surunkali jigar kasalliklari bor bemorlarda: infeksiyalar, oshqozon-ichak qon ketishlari, diuretiklar va/yoki elektrolitlar almashinuvining buzilishi, tinchlantiruvchi vositalarni qo'llash, alkogol, qabziyatlar.

Taktika.

Terminal holatni kutmasdan zudlik bilan shoshilinch yordam markaziga yotqizish.

JIGAR O'SMALARI

Portal gipertenziya

Jigar ichi va tashqarisida portal tizim obstruktsiyasi hisobiga venoz bosimning oshishi kuzatiladi. Ko'p hollarda jigar tsirrozi sabab bo'lib hisoblanadi. Venoz bosimning oshishi natijasida portal va asosiy venoz tizim o'rtasida kollaterallar rivojlanadi, natijada qizilo'ngach venalarining varikoz kengayishi kuzatiladi.

Astsit jigar etishmovchiligi, gipoproteinemiya va giperaldosteronizmning birga rivojlanishi natijasida rivojlanadi. Splenomegaliya ham xos bo'lib, buning natijasida trombotsitopeniya va leykopeniya aniqlanadi. Odatda varikoz qon

ketishi natijasida gematoxezis va/yoki melena aniqlanishi mumkin. Hamda splenomegaliya (80-90%), astsit, kindik atrofida teri osti venalarining kengayishi (kam holatlarda), purpura, jigarning surunkali kasalliklari belgilari – sariqlik, nog`ora tayoqchalari ko`rinishidagi barmoqlar, terida «tomirli yulduzchalar», palmar eritema, ginekomastiya, testikulyar atrofiya, entsefalopatiya kuzatiladi. Bemorni gastroenterolog maslahatiga yuborish zarur.

Tanadagi qon barcha hujayralarga kislorod va karbonat angidrid tashib, ularning bir me`yorda, mo``tadil ishlashini ta`minlaydi, turli xastaliklarning oldini oladi. Jigar esa qonni hamisha tozalab, yana ishga «shay» qilib turadi. SHuning uchun salomat bo`lishni istagan kishi jigar faoliyatiga hamisha «ko`z-quloq» bo`lib turishi kerak. Inson jigarining kasallanishiga asosan uch narsa: qovurilgan yog`li ovqatlar, do`kon shirinliklari va pishiriqlari hamda yumshoq issiq non sabab bo`ladi. Bundan tashqari alkogolli ichimliklar, ko`p ovqatlanish, taomni achchiq eyish, qattiq asabiylashish ham jigar bilan aslo kelisha olmaydi. Inson jigariga to`rt narsa: xom karam, suzma (tvorog), qattiq non va asal eng foydali ne`matlardir. Jigar og`risa, turpni mayda qirib bir hafta mobaynida oyoq tagiga bog`lab yotish lozim. Bu davrda qovurilgan, yog`li ovqatlar, shirinliklar eyilmaydi. Jigardagi kasalliklarni bahorda davolagan ma`qul, chunki muvozanat markazi bahorda o`ng tomonga qarab yuradi.

Har qanday jigar xastaligini behi suvi yaxshi davolaydi. Buning uchun behi sharbatidan kuniga bir-ikki kosa ichish kerak bo'ladi. Necha kun ichish kasallikning og`ir-engilligiga, eski-yangiligiga va dardman mijoziga qarab belgilanadi.

Jigari xasta bemorlar har kuni ikkitadan olma (faqat yurtimizda etishtirilganini) eb yurishsa foydasi katta. Ayniqsa uni kechasiga eyilsa, qand moddasini haydaydi, xolesterinni mo``tadil saqlaydi, jigar holatini yaxshilaydi. Oshqovoq suvi jigarga nihoyatda foydali, u sariq kasalligining oldini ham oladi

Quruq o`rik (turshak) peshob haydovchi bo`lgani uchun jigar faoliyatini yaxshilashda qo`l keladi.

Bodring, sabzi va lavlagi suvini olib, aralashtirib ichilsa, jigar xastaliklarini davolaydi.

Jigari og`riydigan kishi ilojini qila olsa, har kuni bir choy qoshiqda kunjut yog`i ichsin.

Jigar xastaliklarida tuzsiz qaynatilgan baqlajon va qovoq yaxshi foyda beradi.

Zirkning qotirilgan qiyomidan har kuni arpa doni kattaligidagisini suvda eritib ichilsa yoki suv bilan ichga yutilsa, bir hafta-o`n kun ichida jigar qurtlarini yo`qotadi, isitmali jigar dardini bosadi, uzum sirkasi bilan tanovul qilinsa, jigar xastaliklariga davo bo`ladi.

Jigar quriganida olmurut eyish, qizil zirkdan sharbat tayyorlab davomli ichish, chakanda (oblepixa) ni qaynatib, za`faron qo`shib iste`mol qilish, muntazam tuya suti ichish darkor.

Jigar qurishi kasalini bartaraf etishda 60 gr. asalga 3 gr. bog`yalpiz suvini qo`shib uch mahaldan ichiladi. Tut ildizining oq po`stidan 20 gr. zanjabildan 15 gr., tarvuz po`stidan 50 gr., bodring po`stidan ham shuncha, uzun oshqovoq po`chog`idan ham shuncha olib suvda qaynatib ichilsa, jigar quriganida yordam beradi.

Qizil bodrezak mevasining sharbatini asal bilan aralashtirib ichsangiz, jigar xastaligiga davo bo`ladi. Issiqlikdan bo`lgan jigar xastaliklariga qoqigul, bog` va chl saratqisi juda foydalidir.

Jigar kuchsizligini davolashda za`faron, anor doni va mayizni urug`i bilan chaynab eyish qo`l keladi.

G`ozpanja o`tini suvda qaynatib, ovqatdan oldin kuniga 3-4 martadan ichsangiz, jigaringizga davo bo`ladi.

Har kuni 3,5 gr. zira iste`mol qilib yurilsa, jigarni mustahkamlaydi.

Jigarni tozalash uchun µar kuni 5 grammdan kungaboqar ildizining suvidan ichib yurish kerak.

Tol bargi va novdalarini yoyib ustida yotilsa, jigar issig`ini daf qiladi.

SHirin anor suvini muntazam iste`mol qilib yurilsa, jigar tozalanadi va quvvati ortadi.

Muntazam shakar iste`mol qilish bilan jigarni kuchlantirish mumkin.

Baliqni olovda kabob qilib eyilsa, zaiflashgan jigarga juda foydali.

Kuniga uch donadan achchiq bodomni asalga qo`shib eb yurilsa, jigar xastaliklariga davodir.

Har kuni 7 gr. dasht sabzisi giyohini quritib yanchigach choy va asalga aralashtirib ichilsa, sovuq jigarga issiqlik baxsh etadi.

O`n besh gramm qovun urug`ini yanchib eyilsa, jigardagi tiqinlarni ochadi.

Qurutni suvda ezib ichilsa (qurtob) jigar haroratini pasaytiradi.

Limon suvini shakarli choyga aralashtirib ichilsa, jigarga quvvat bag`ishlaydi.

Kuniga 80-100 gramm shavel eb yurilsa, jigarni mustahkamlaydi.

Yigirma gramm semizrt urug`ini yanchib elakdan o`tkazib, shakarli suv bilan ichilsa, jigar haroratini pasaytiradi.

SHirin olma sharbati va anjir jigarni quvvatli qiladi. Xom xondon pista mag`zi jigar sovuqligiga davo.

Bodring va olvali jigar tiqinlarini ochadi.

Oshqovoq suvda qaynatib eyilsa, jigar haroratini pasaytiradi.

Bir yarim-ikki gramm qalampirmunchoqni yanchib, yangi sog`ilgan sigir suti bilan nahorga ichilsa, jigarga quvvat beradi.

Sabzini suvda qaynatib, so`ng u asalga qo`shib eyilsa, qonni tozalaydi va jigarga yordam beradi.



Sirka va asal qo`shib eb turilsa, jigar xastaliklariga shifo bo`ladi.

Jigari xastalangan bemorlar tovuq go`shti, anor, mayiz, no`xat iste`mol qilishlari, qatiq ichib turishlari kerak.

Agar jigaringiz kamquvvat bo`lsa, ravoch ildizini mayda kesib, quritib, havonchada yanchib shisha idishga solib qo`ying-da, undan ertalab eb turing.

Jigar og`rig`ini qoldirishda na`matakdan damlangan choy eng shifobaxsh malhamlardan sanaladi.

JIGARNING TOKSIK DISTROFIYASI

Jigarning toksik distrofiyasi, odatda, o`tkir o`ta- kasallik bo`lib, jigar ko`proq distrofik o`zgarishlardan zararlanadi, unda keng nevroz o`choqlari paydo bo`ladi, bular ba`zan deyarli butun jigarni o`z ichiga oladi.

Toksik distrofiyaning etiologiyasi va patogenezini turli-tuman. Kasallik epidemik hepatitni boshdai kechirish natijasida, har xil zaharlanishda (masalan, zaharli qo`ziqorinlar, ko`kmaraz, fosfor, mishyak va shu kabilardan zaharlanish), autointoksikatsiyalar (homiladorlik toksikozi, tireotoksikoz), ichak kasalliklarida ro`y berishi mumkin. Toksik modda jigar to`qimasiga bevosita patogen ta`sir ko`rsatib, og`ir distrofik va nekrotik o`zgarishlarga sabab bo`ladi. Allergik faktor ham bir qadar rol o`ynashi mumkin.

Jyper toksik distrofiyasining patologik anatomiyasi parenximadagi og`ir distrofik o`zgarishlardan iborat. Kasallikning dastlabki 3—4 kunida jigar kattalashadi; u picha ilvillab qoladi, yuzasi ham, kesilgan joyi ham sarg`ish tusga kiradi. Mikroskopik tekshirishda aksari jigar hujayralari keskin darajada yog` distrofiyasiga uchraganligining belgilari topiladi. Keyin jigar kichraya boshlaydi, vazni kamayadi, konsistentsiyasi ilvillab, kapsulasi burishib qoladi. Jigar kesilganda och sariq tusli bo`ladi.

Mikroskopda tekshirilganda jigar hujayralaridan glikogen yuqolganligi, asosan bo'laklar markazida keng nevroz o'choqlari paydo bo'lganligi aniqlanadi; nevroz zonasi keyinchalik butun bo'lakni va hatto grupp-gruppa bo'laklarni o'z ichiga oladi. Distrofik va nevrobiotik o'zgarishlar kuchayadigan bu davr 10 -12 kun davom etadi va s a r i q distrofiya davri deb ataladi.

JIGAR TSIRROZI

Jigar tsirrozi xronik kasallik bo'lib, quyidagi beshta asosiy protsess: jigar hujayralarining distrofiyasi, r e g e n e-ratsiyasi, qo'shuvchi to'qimaning sidirg`a o'sishi (skleroz), organ strukturasi qayta qurilishi, sklerotik protsesslar avj olgani munosabati bilan jigar d e f o r m a t s i y a s i ro'y beradi.


Kasallikning nomi grekcha «kirros» so'zidan kelib chiqqan, u «qahrabo», «sariq» degay ma`noni bildiradi. Bu nomni Laennik taklif etgan.

Jigar tsirrozining etiologiyasi turli-tuman, shuning uchun «jigar tsirrozi» degan tushuncha bir qadar yig`ma tushunchadir. Masalan, jigarning bir grupp infeksiyon tsirrozlari bor; ular Botkin kasalligiga sabab bo'luvchi virusli infeksiyadan keyin ayniqsa ko'p paydo bo'ladi. Jigar tsirrozi bemorlarning 75% dan ko'prog`ida virusli gepatit (Botkin kasalligi) bilan og`rib o'tishdan keyin paydo bo'lishi hozirgi vaqtda aniqlangan. Bundan tashqari jigarnin toksik distrofiyasi, bezgak, leyshmanioz bilan

og`rib o'tishdan keyin, o't yo'l-lari yallig`langanda, parazitlar invazyalarda jigar tsirrozi ro'y berishi mumkin. Oqsillar va asosan lipotrop faktorlar (xolin, metionin) etishmasligi munosabati bilan kelib chiqadigan alimentar tsirrozlar (modda almashinuv tsirrozlari) katta o'rin tutadi, Jigar tsirrozining kelib chiqishida alkogolizm, eg` va oqsillar almashinuvining, mis almashinuvining buzilishi, tireotoksikoz katta rol o'ynaydi. Bunday tsirrozlar metabolik tsirrozlar deb ataladi. Jigarga zarar etkazib, jigarning toksik tsirrozlariga sabab bo'ladigan bir qancha genatotrop moddalar bor.

Jigar va me'da osti bezining tuzilishi va ovqat hazm qilishdagi roli.

Jigar. Jigar organizmning eng katta bezi bo'lib, uning og'irligi 1500 g keladi. Jigar qorin bo'shlig'ining yuqori qismida, diafragmaning tagida joylashgan. Jigarning ko'p qismi o'ng qovurg'a osti sohasida joylashgan. Jigar ustidan zich tolali biriktiruvchi to'qimadan iborat bo'lgan fibroz parda – *Glisson kapsulasi* bilan o'ralgan. Jigarning diafragma qaragan yuzasida kapsula, jigarni teng bo'lmagan ikki bo'lakka bo'ladi (79-rasm).




Jigar, me'da va me'da osti bezining joylashuvi.

1 – jigar; 2 – o't pufagi; 3 – o't yo'li; 4 – me'da osti bezining nayi;

5 – 12 barmoqli ichak; 6 – me'da osti bezi; 7 – me'da.

Jigar kapsulasi ichkariga kirib, uni juda ko'p bo'lakchalarga bo'ladi. Jigar bo'lakchalari jigarning struktur-funksional birligidir (80-rasm).



Jigar bo‘lakchalarining tuzilishi.

1 – jigar bo‘lakchasi; 2 – hepatotsitlar; 3 – markaziy vena;
 4 – jigar triadasi: a – vena; b – o‘t yo‘li; c – arteriya.

Bo‘lakchalar ko‘p burchakli prizma shaklida bo‘lib, o‘lchami 1-2 mm, umumiy soni 500 mingga yetadi. Bo‘lakchalar jigar plastinkalaridan iborat bo‘lib har bir jigar plastinkasida ikki qator yonma-yon joylashgan jigar hujayralari ya’ni gepatotsidlar bo‘ladi. Plastinkalarning orasida qon kapillyarlari, plastinka ichida esa (gepatotsidlar orasida) o‘t suyuqligi yo‘li joylashgan. Plastinkalar jigar hujayralari – gepatotsitlardan iborat. Plastinkalarning ichida o‘t suyuqligi kanalchalari joylashgan. Bu yo‘lga gepatotsitlarda ishlangan o‘t suyuqligi chiqariladi. Gepatotsitlarning qon kapillyarlariga qaragan yuzasidan qonga, qonning oqsillari (albumin, globulin, protrombin, fibrinogen, geparin va boshqalar) ajratiladi. Jigar bo‘lakchalarining chetlarida jigar uchligi (triadasi)ni hosil qiluvchi bo‘lakchalar aro o‘t yo‘li arteriya va venalar bo‘ladi. Bo‘lakchaning o‘rtasidagi tomir markaziy vena deb ataladi. Bo‘lakchalar aro arteriya va venalardan chiqqan tomirlar plastinkalar orasidagi kapillyarlarga o‘tganda, arterial va venoz qon aralashib, markaziy venaga keladi. Hamma bo‘lakchalardan venoz qon yig‘ilib, jigar venasini hosil qiladi va jigardan chiqib pastki kavak venaga quyiladi.

Jigarning funksiyalari.

1. Zararsizlantirish funksiyasi: Jigarda modda almashinuvi mahsulotlari, dori moddalari va boshqa zaharli moddalar (alkogol, nikotin va boshqalar) zararsizlantiriladi. 2. *Jigarning yulduzsimon makrofag hujayralari* (Kupfer hujayralari)

mikroorganizmlar va boshqa antigen moddalarni fagotsitoz qilib, immun himoya vazifasini bajaradi.

3. *Jigarda glikogen sintezlanadi* va u qondagi qandning miqdorini muntazam boshqarib turadi.

4. *Jigarda qon plazmasi* oqsillarining 80 % i sintezlanadi.

5. Yog'larning parchalanib, ichakka so'rilishini ta'minlaydigan o't suyuqligi ishlab chiqariladi (1 kecha-kunduzda 700-1200 ml).


Jigar hujayralari alkogol, nikotin kabi zararli moddalarga o'ta sezgir bo'ladi. Shuning uchun spirtli ichimliklarni sistematik tarzda iste'mol qilish, jigar hujayralarini nobud bo'lishi va sirroz kasalligining rivojlanishiga sabab bo'ladi.

Me'da osti bezi. Me'da osti bezi kattaligi jihatdan jigardan keyin turadigan ovqat hazm qilish sistemasining asosiy bezidir. U aralash bez bo'lib, ekzokrin va endokrin qismlardan iborat (81-rasm). Ba'zi hayvon (baliq)larda bu ikkala qism alohida bo'lib, 2 ta bezni hosil qiladi.

Anatomik jihatdan me'da osti bezining bosh, tana va dum qismlari farq qilinadi. Me'da osti bezi me'daning orqa sohasida I - II bel umurtqalarining qarshisida joylashgan. Bezning og'irligi 70-90 gr, uzunligi 17 sm va qalinligi 3-4 sm keladi. Bez massasining 97 % ini ekzokrin qismi va 3 %ini endokrin qismi tashkil qiladi. Bezning kesmasi bo'yalganda uning endokrin qismi, bez to'qimasida och qismlar ya'ni orolchalar shaklida tarqalib

joylashgan. *Langergans orolchalari* deb ataladigan bu orolchalarning soni bezning boshidan dum qismi tomon ortib boradi.

Bezning ekzokrin qismi, *atsinus* deb ataladigan bezning struktur-funksional birliklaridan va chiqaruv naylaridan iborat. Atsinuslar kattaligi 100-150 mkm bo'lgan qopchani eslatadi. Har bir atsinus 7-12 ta yirik sekretor hujayralardan iborat. Bu sekretor hujayralardan ajralgan shira chiqaruv naylari orqali 12 barmoqli ichakka quyiladi.



Me'da osti bezi.

1 – ekzokrin qismining sekretor bo'limlari; 2 – endokrin qismi – langergans orolchalari;

3 – chiqaruv nayi; 4 – qon tomir.

Bezning ekzokrin qismi 1 kecha-kunduzda 1,5-2 litr shira ishlab chiqaradi. Me'da osti bezining shirasi tiniq suyuqlik bo'lib, ishqoriy (pH-8,5) reaksiyaga ega. Oshqozon osti bezining shirasi, oshqozondan 12 barmoqli ichakka o'tgan ozuqani neytrallaydi. Chunki me'da osti bezi va ichakning fermentlari faqat, neytral va kuchsiz ishqoriy muhitdagina ta'sir etadi. Me'da osti bezining ekzokrin qismida tripsin, ximotripsin, karboksipeptidaza, amilaza, lipaza, esteraza, ribonukleyeza, dezokosribonukleza kabi fermentlar ishlab chiqariladi. Bu fermentlarning ta'sirida polimer ozuqa moddalar o'zlarining monomerlarigacha parchalanadilar. Bezning endokrin qismining gormonlari organizmda oqsillar, yog'lar va uglevodlar almashinuvini boshqarishda ishtirok etadi.

Ovqat hazm qilishning nerv gumoral boshqarilishi

Ovqat hazm qilishning nerv markazi uzunchoq miyada va oraliq miyaning ko'ruv do'mbog'i ostida – gipotalamusda joylashgan. Bu markazlarning parasimpatik adashgan nervi va simpatik nervlari, ovqat hazm qilish organlarining ishini boshqaradi. Ta'm bilish retseptorlarining qo'zg'alishi oraliq va uzunchoq miyadagi ovqat markazlarini qo'zg'atadi. Natijada so'lak ajralishi kuchayadi. Yutilgan ovqat oshqozon shilliq pardasidagi retseptorlarni qo'zg'atadi va jigar hamda me'da osti bezidan shira ajralishini kuchaytiradi.

Ovqat hazm qilishning gumoral boshqarilishi hazm kanalining devorida joylashgan endokrin hujayralar tomonidan

amalga oshiriladi. Oshqozonning pilorik qismida hosil boʻlgan gastrin va gastron, 12 barmoqli ichakning sekretin, ingichka ichakning enterogastrin va enterogastron gormonlari, oshqozon-ichak bezlarining shira ajratishini boshqaradi. Xolesistokinin va pankreozimin gormonlari jigar va meʼda osti bezidan shira ajralishini kuchaytiradi.

XULOSA

Jigar organizmning eng katta bezi bo‘lib, uning og‘irligi 1500 g keladi. Jigar qorin bo‘shlig‘ining yuqori qismida, diafragmaning tagida joylashgan. Jigarning ko‘p qismi o‘ng qovurg‘a osti sohasida joylashgan. Jigar ustidan zich tolali biriktiruvchi to‘qimadan iborat bo‘lgan fibroz parda – *Glisson kapsulasi* bilan o‘ralgan. Jigarning diafragma qaragan yuzasida kapsula, jigarni teng bo‘lmagan ikki bo‘lakka bo‘ladi

Jigar hujayralari alkogol, nikotin kabi zararli moddalarga o‘ta sezgir bo‘ladi. Shuning uchun spirtli ichimliklarni sistematik tarzda iste‘mol qilish, jigar hujayralarini nobud bo‘lishi va sirroz kasalligining rivojlanishiga sabab bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. D.A. Alimov “Gistologiya va embriologiya”, T, 1966y
 2. A.S. Gusyev “Anatomiya”, T. “Meditsina”, 1966 y
 3. M.T. Matyushonok “Kichik maktab yoshidagi bolalar anatomiyasi, fiziologiyasi va gigiyenasi”, T. “O`qituvchi”, 1975 y
 4. A.A. Markosiyani “Yosh fiziologiya masalalari”, T. 1977 y
 5. A.S. Klimeshyeva “Yoshga oid fiziologiya”, T. “O`qituvchi”, 1991 y
 6. Sh.T. Otaboyev “Kommunal gigiyena”, T. “Ibn Sino” 1994 y
- M.N. Ismoilov “Bolalar va o`smirlar gigiyenasi”, T. “Ibn Sino” 1994 y
- O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS

TA'LIM VAZIRLIGI

NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT

PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

BIOLOGIYA VA UNI O`QITISH METODIKASI KAFEDRASI

- 7.
8. T.T. Tilovov “Odam va uning salomatligi”, T. “O`qituvchi”, 1995 y
9. X. Xoliqov “Biologiya”, T. “Ibn Sino” 1996 y
10. N.K. Ahmedov “Normal va patalogik anatomiya bilan fiziologiya”, T. “Ibn Sino” 1997 y